

“Shaxsiy hisobdagi qoldiq evaziga Keshbek berish” Aksiyasining Qoidalari

“Shaxsiy hisobdagi qoldiq evaziga Keshbek berish” Aksiyasi (keyingi o‘rinlarda — Aksiya) «Humans» Mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Humans), tomonidan Humans’ning Sodiqlik Dasturi doirasida o‘tkaziladi.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan keltirilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida hamda Humans'ning Sodiqlik Dasturi qoidalarida keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi aniq belgilangan bo'lmasa).

1.2. Aksiya ishtirokchilari – Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Operator bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan hamda Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan boshqa harakatlarni amalga oshirgan Mijozlar, jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi.

1.4. Hisobot kuni — shu kun natijasiga ko'ra Bonus beriladi.

1.5. Aksiya o'tkazilish davri: 21.06.2021-y. dan boshlab bekor qilingunicha.

2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya o'tkazilishi davrida hamda Aksiya Qoidalarining 2.2 bandida ko'rsatilgan shartlarga amal qilgan holda Aksiya Ishtirokchisi Aksiya Ishtirokchisining Shaxsiy hisobidagi qoldiq summasidan Hisobot kunining oxirgi natijasiga ko'ra (keyingi o'rinlarda — Qoldiq) har kuni yillik 20% (yigirma foiz) hisobida Keshbek ko'rinishida Bonus oladi, ushbu Bonus Ishtirokchining Keshbek-hisobiga kelib tushadi (keyingi o'rinlarda - Bonus). Bonus hajmining hisob-kitobi har kuni, mazkur Qoidalarning 2.3 bandida muvofiq amalga oshiriladi.

2.2. Aksiya shartlari

2.2.1. Aksiyada quyidagi talablarga javob beradigan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin:

- Bonus hisoblanadigan paytda Ishtirokchining Shaxsiy hisobidagi qoldiq eng kamida 1 (bir) so'mni tashkil qiladi;
- Ishtirokchi Humans Sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchisi hisoblanadi, hamda Humans sodiqlik Dasturida uning ishtiroki to'xtatilmagan yoki bekor qilinmagan.

2.3. Aksiya doirasida Bonus hisoblanishining tartibi:

- Aksiyada bir kun ishtirok etish evaziga beriladigan Bonus Qoldiqdan foiz sifatida mingdan bir foiz darajada, yuqori songa keltirilgan holda, $20\%/365 = 0,055\%$ (Nol butun mingdan ellik besh foiz) * Qoldiq formulasi bo'yicha hisoblanadi;
- Bonus hajmi 1 so'mgacha teng holga keltirilib hisoblanadi;

- Bitta Ishtirokchiga bir kalendar oyida beriladigan Maksimal Bonus summasi 100 000 (Yuz ming) bonus so'mni tashkil qiladi, ko'rsatilgan summadan ortiqcha Bonus Ishtirokchiga berilmaydi;
- Qoldiqni aniqlash uchun Hisobot kunining keyingi kunida 00:00 dan 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida hisobda bo'lgan Qoldiqlardan istalgani Operatorning ixtiyoriga ko'ra foydalanilishi mumkin.

2.4. Aksiya o'tkazilishi davrida Bonus har kuni, Bonus hisob-kitobi amalga oshirilganidan keyin Ishtirokchi 2.2 va 2.3 bandida ko'rsatilgan qoidalarga amal qilgan bo'lsa, Keshbek-hisobga tushiriladi.

2.5. Mazkur Aksiyada qatnashadigan Ishtirokchi Humans tomonidan o'tkaziladigan boshqa Aksiyalarda Humans'ning Sodiqlik Dasturiga muvofiq ishtirok etib, Bonus olish huquqiga ega.

2.6. Ishtirokchi olgan Bonuslaridan faqatgina Humans Sodiqlik dasturi doirasida belgilangan shartlarga muvofiq foydalanishi mumkinligi qattiq belgilangan, hamda Bonuslarni pul ko'rinishida olishi mumkin emas.

3. Yakuniy qoidalar

3.1. Mazkur Qoidalar Humans Saytida chop etilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarga o'zgarishlar kiritishga yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali oldindan ma'lum qilgan holda Aksiyani bekor qilishga haqli. Ma'lum qilingan sana – Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan kun. Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya bekor qilingan sanaladi.

3.2. Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblanuvchi Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozilikni anglatadi.

3.3. Ushbu qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa hollarda Humans'ning Sodiqlik Dasturi qoidalari

amal qiladi.